

## KNAUF-Rotband Pasta Profi

Tayyor yakuniy shpaklyovka

Tayyor tarkiblar

01/2026



### Qo'llanish sohasi

KNAUF-Rotband Pasta Profi - vinil asosli tayyor pastasimon yakuniy shpaklyovka. Bag'oyatda oppoq rang, oshirilgan adgeziyaga ega va yoriqlarga bardoshli. Bino ichida gipskarton yoki gips tolali qoplamalar, suvalgan va beton yuzalar, shishaxolst yuzasini yuqori sifatli bo'yoq, gulqog'oz yopishtirish, venetsiyacha suvoq va boshqa yakuniy materiallarga tayyorlashda yakuniy shpaklyovkalash uchun qo'llaniladi. Qo'lda va mashina bilan surtish mumkin. Ichkarida bajariladigan ishlar uchun. Gipskarton qoplamalarning choklarini yamash uchun qo'llanilmaydi.

### Qadoqlash va saqlash

- Shpaklyovka 20 kg li chelaklarda qadoqlanadi.
- Qadoqni quyosh nurlari to'g'ridan-to'g'ri tushishidan himoyalang.
- Quruq va salqin binoda musbat haroratda isituvchi jihozlardan narida saqlang.
- Muzlaganda isituvchi jihozlar yoki issiq suv yordamida erishini tezlatmang, bu shpaklyovka buzilishiga olib keladi.
- Xona haroratida 1-2 sutka davomida muzdan tushiriladi.

Muzdan tushganidan keyin shpaklyovka yuzasida paydo bo'lgan suv to'kib yuborilmaydi! Aks holda materialning ishchi xususiyatlari tiklanmaydi. Shpaklyovkadan foydalanishdan oldin suv qo'shmasdan bir xil konsistensiyaga aylangunicha mikser bilan eng past aylanishda yaxshilab aralashtiriladi. Muhri buzilmagan va shikastlanmagan qadoqdagi shpaklyovkani ko'p marta muzlatish/eritish mumkin. Muhri buzilmagan va shikastlanmagan qadoqni saqlash muddati - 12 oy

### Texnik xususiyatlari

- Qatlam qalinigi: 0,2 dan 2 mm gacha;
- Zarralari o'lchami (o'rta/maksimal) 25/50 mkm;
- Ishchi harorat: 10-30 °C;
- Qurish vaqti: 24 soat;
- Saqlaganda muzlatish/eritish: 5 sikldan oshirish mumkin emas.

#### Manzil

Toshkent sh Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

#### Kontaktlar

+998 78 150 11 59  
+998 78 150 11 60  
+998 78 150 11 61

### Ishlar tartibi

#### Asosni tayyorlash

Shpaklyovka, asos va binodagi havo harorati +10 °C dan kam bo'lmasligi kerak. Gipskarton qoplamalar yuk ko'taruvchi karkasga mustahkam o'rnatilgan bo'lishi kerak. Suvoq va beton asos tekis, quruq, chang va kirdan tozalangan, ko'chmagan bo'lishi kerak. Katta notekis joylar yoki shikastlangan joylar KNAUF- Fugen aralashmasi yordamida tekislanishi va quritilishi kerak. Yuzani astarlashga (gruntovkalashga) hojat yo'q.

#### Ishlar tartibi

Ish boshlashdan oldin aralashmani qorishtirish kerak. Zaruriyatga ko'ra, ozroq suv (1 kg ga 30 ml dan ko'p emas) qo'shiladi va yana aralashtiriladi.

#### DIQQAT!

Shpaklevkani suv bilan o'ta suyultirib yuborish uning keskin cho'kishiga va yopishqoqlikning (adgeziya) pasayishiga olib kelishi mumkin. Ish uchun zanglamaydigan po'latdan toza idish va asboblari ishlatiladi.

#### Boshdan-oyoq (To'liq) shpaklyovkalash

- 2 mm qalinlikdagi shpaklyovka qatlamini qo'lda yoki mexanizatsiyalashgan usulda surtiladi. Mexanizatsiyalashgan usul uchun PFT SWING Airless yuqori bosimli havosiz nasosni ishlatish tavsiya etiladi;
- Shpaklyovka shpatel bilan tekislanadi;
- Yuza quriganidan so'ng qumqog'ozlanadi, masalan, P240 qumqog'oz yoki maydaroq donalisi ishlatiladi;
- Changdan tozalanadi.

Navbatdagi qatlamni oldingisi batamom quriganidan keyin surtiladi. Idish va asboblari ishlatilgandan so'ng darhol suv bilan yuviladi.

### Materiallar sarfi

Yuzani to'la shpaklyovkalashda va qatlam qalinligi 0,3 mm bo'lganida shpaklyovka aralashmasi sarfi

Material	O'lchov birligi	Miqdori
KNAUF-Rotband Pasta Profi	kg/m <sup>2</sup>	0,48

#### Qurish vaqti

+20 °C havo harorati, 60% havo namligi va 1,5 mm shpaklyovka qalinligida - 24 soat. Qurish vaqti harorat, namlik va qatlam qalinligiga qarab o'zgarishi mumkin. Qurishni tezlatish uchun ishlov berilgan yuzaga issiqlik pushkasi va boshqa isitkichlar yo'naltirish mumkin emas.

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.